

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG HAYOTI VA FAOLIYATI

Rashidova Amina O'ktam qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi

2-kurs talabasi

tel: +998977510733

rashidovaamina0733@gmail.com

Ilmiy rahbar: Umurzakova A.U.

O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri Aleksandr Arkadevich Faynberg hayotiga oid ma'lumotlar, uning ijod yo'li, iste'dodli shoirning she'riy to'plamlari, o'lmas asarlari, zamondosh shoirlarning u haqida bildirgan fikrlari, tarjimonlik faoliyati bilan bir qatorda o'zbek kinematografiyasiga qo'shgan hissasi haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: Aleksandr Faynberg, adabiyot, she'riy to'plam, jurnalistika, tarjima, baynalminal, ssenariy, kinematografiya, badiiy filmlar, multfilmlar, medal.

Annotation: This article gives information about the life of the National Poet of Uzbekistan Alexander Arkadevich Feinberg, his creative path, poetic collections of the talented poet, immortal works, information about him from contemporary poets, his translations along with his contribution to Uzbek cinematography.

Key words: Alexander Feinberg, literature, poetic collections, journalism, translation, international, scenario, cinematography, film, animation film, medal.

“Adabiyot – xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlashtirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Darhaqiqat, adabiyot insonning ruhiy olamini boyituvchi yuksak bir vosita hisoblanadi. Boshqa sohalarga nisbatan badiiy sdabiyotda o‘zini birmuncha erkin his qiladi. Albatta barchaning ruhi, ya’ni ma’naviy olami bor, inson ruhi faqat o‘ziga o‘xshash tomonlari bor bo‘lgan ruhni uchratgandagina taskin topadi. O‘sha zamonlarda ham men kabilar bo‘lgan ekan-da, deya ta’sirlanadi, hissiyotlari junbushga keladi. Bu qanday ro‘y beradi? Albatta, badiiy asarlar, she’rlar, hikoyalar, roman va qissalar o‘qish oqali ko‘p insonlar ichki dunyosiga sayohat qilamiz. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, Aleksandr Faynberg aynan shunday asarlarni yozuvchi insonlar qatoriga kiradi, uning she’rlarida nafaqat rus va Yevropa yozuvchilarining badiiy uslublari, balki Sharq mumtoz she’riyati an’analari ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Aslida ota-onasi, millati rus bo‘lgan Aleksandr Arkadevich Faynberg 1939-yil Toshkentda dunyoga kelgan. Otasi va onasi Novosibirskdan O‘zbekistonga u tug‘ilishidan avval ko‘chib kelgan. Maktabni tugatgach, Toshkent topografiya kexnikumiga o‘qishga kiradi. Uni ham muvaffaqiyatli tugatgach, harbiy xizmatga Tojikistonga ketadi. 1965-yilda Toshkent universitetini tamomlab, jurnalistika fakultetining sirtqi bo‘limida tahsil oladi.

O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi a’zosi va talabalar gazetasida tirishqoqlik bilan faoliyat yuritgan shoirning qator she’rlari dastlab, "Smena", "Yoshlik", "Sharq yulduzi", "Yangi dunyo", "Yangi Volga" jurnallarida, keyinchalik AQSh, Kanada, Isroil matbuotlarida ham nashr qilingan. 1965-1969-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi maslahatchisi bo‘lgan. Tobora ko‘payib borayotgan she’rlarini "Etyud" (1967), "Soniya" (1969), "She’rlar" (1977), "Olis ko‘priklar" (1978), "Ijobat" (1982), "Qisqa to‘lqin" (1983), "Yoyma to‘r" (1984), "Erkin sonetlar" (1990) nomlari ostida she’riy to‘plamlar holatiga keltirdi. Toshkent shahridan tashqari, Moskva va Sankt Peterburgda ham bir qancha she’riy to‘plamlari nashr qilingan

U ikki xalq – o‘zbek va rus xalqining badiiy uslublarni ajoyib tarzda jamlab, baynalminal aloqalar vujudga kelishiga o‘z hissasini qo‘shgan. “Peshonamga bitilgan baxtim bor ekan, — deb yozadi Aleksandr Faynberg. — Men mustaqil O‘zbekistonda yashayman. O‘z umrim davomida milliy kamsitishni hech qachon his etmaganman. Adabiyot yo‘lida menga o‘zbek yozuvchilari juda ko‘p bora yordam berishdi. Butun ijodim davomida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va ko‘pdan-ko‘p yozuvchilar, rassomlar, musiqachilar, boshqa turli kasb egalarining yaxshiliklaridan

bahramand bo‘lib kelmoqdaman”. O‘zbek xalqiga hurmati baland bol‘gan fidokor shoir o‘z vaqtida tarjimonlik bilan ham shug‘ullandi. Jumladan, mashhur o‘zbek shoirlarining she‘riy to‘plamlarini rus tiliga tarjima qildi. O‘zbek she‘riyatining dunyo taniydigan adibi Alisher Navoiy g‘azallarini, Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonini, Abdulla Oripov, Asqad Muxtor, Omon Matjon, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, Azim Suyun va boshqa shoirlarning she‘rlarini rus tiliga o‘z maromiga yetkazib tarjima qildi. Uning bir qancha shoirlar she‘rlaridan tarjima qilganlari jamlanib, Toshjentda “Oqqushlar galasi” nomi ostida nashr qilindi. O‘zbek qalbli rusiyzabon shoirning tarjimalari orqali o‘zbek adabiyoti durdonalaridan Yevropa mamlakatlari ham bahramand bo‘ldi.

Aleksandr Faynberg o‘zbek kinematografiyasiga ham salmoqli hissa qo‘shgan adib hisoblanadi. Uning ssenariylari asosida “O‘zbekfilm” kinostudiyasida “Mening akam”, “Jazirama oftob tagida”, “Qandahorda toblanganlar”, “Tojikfilm” kinostudiyasida esa “Jinoyatchi va oqlovchilar” kabi filmlar suratga olingan. Faynberg ssenariysi asosida to‘rtta to‘liq metrajli badiiy film va 20 ga yaqin multfilmlar yaratilgan. 1999-yil Paxtakor futbol jamoasining fojiali halokatdagi o‘limi munosabati bilan uning ssenariysi asosida “Ularning to‘p maydoni osmonda” nomli film suratga olingan bo‘lib, filmning qo‘shiq matni ham Aleksandr Faynberg qalamiga mansub.

1999-yil 23-avgustda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” deb taqdirlandi. Shuningdek, 2004-yilda 23-avgustda “O‘zbekiston xalq shoiri” deb e‘tirof etilgan. O‘zbekiston xalq shoiri, Yozuvchilar uyushmasi maslahatchisi, kinomatografiyaning taraqqiy etishiga o‘z hissasini qo‘shgan Aleksandr Faynberg Rossiya Prezidenti Farmoni bilan Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo‘shganligi uchun 2009-yil Pushkin medali bilan taqdirlangan

Faynberg samimiy yozuchi, u she‘rlaridagi holatlarni tabiiy bo‘yoqlarda tasvirlaydi, har qanday bo‘rttirishlardan yiroq. She‘rlari tabiat manzaralaridan tortib, o‘zbek milliy qadriyatlari, vatanga bo‘lgan sevgi, muhabbat, baxt, do‘stlik, ijtimoiy-hayotiy mavzularni o‘z ichiga oladi. “Vatan” nomli she‘rida u shunday deydi:

Dalalarni kezdim qadamma-qadam,
Teodolit ko‘tarib, o‘lchadim tanob.
Loysuvoq uylarda simirdim chalob,
Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom.



Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim –

O‘zbekistondadir xokim, turobim.

Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham.

She‘rdan shuni anglashimiz mumkin-ki, Faynberg uchun yurt dalalari, loysuvoq uylari, eshiksiz hovlilari-yu, doim ochiq turadigan uylar, hamma-hammasi qadrli. Yana u nasl-u nasabi, xokini ham shu yurt bilan chambarchas bog‘laydi. Bir so‘z bilan aytganda she‘rlari ko‘rinishidan sodda, ammo teran ma‘nolarni mujassamlashtira olgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Aleksandr Faynberg madaniyat va san‘atning bir qancha turini o‘zida mujassamlashtira oldi. Jumladan, o‘zi she‘rlar yozdi, badiiy tarjima bilan shug‘ullandi, o‘zbek kinochiligida ham o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Bu sa‘y-harakatlari orqali nafaqat hayotlik chog‘larida yurt ardog‘ida bo‘ldi, balki bir necha yillar o‘tganiga qaramasdan hozir ham ijodlari sevib o‘qiladi, o‘rganiladi, shoir xalq e‘tirofida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aleksandr Faynberg. Qoralanmaga qasida. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – 11-bet.
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg

Research Science and Innovation House